

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TALABA VA O'QUVCHILARNING
MA'NAVIY YUKSALISHIGA KO'MAKLASHISH MARKAZI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI
YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI TOSHKENT SHAHAR BOSHQARMASI**

**O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI
TOSHKENT SHAHAR HUDUDIIY KENGASHI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI
O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO'YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYALAR, SAVDO VA SANOAT
VAZIRLIGI O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI
RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR KENGASHI**

“SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI”

**mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy
konferensiya to'plami**

2023-yil 20-aprel

“Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami // Toshkent, 2023-yil 20-aprel. – 1326 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi **“Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi PQ-4433-sonli Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, **2023-yil “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”** munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Talaba va o'quvchilarning ma'naviy yuksalishiga ko'maklashish markazi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi Yoshlar ishlari agentligi Toshkent shahar boshqarmasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, savdo va sanoat vazirligi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Respublika Yosh olimlar Kengashi hamkorligida **“Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Mazkur konferensiya to'plamida uch yuz ellikdan ortiq maqolalar jamlangan.

Tahrir hay'ati:

Olima Ergasheva – biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Qodirjon Abdurahimov – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Mansur Aytbayev – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Jamshid Yusubov – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Kamoliddin Jabborov – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Serobjon Yuldashev - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Baxtiyor Mamasoliyev – fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Surojbek Sultonov – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Jaloliddin Yusubov – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Umid Menglikulov – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);
Rasul Ro'zmetov – katta o'qituvchi;
Bekzod Ernazarov – katta o'qituvchi;
Sarvar Jumayev – o'qituvchi.

Tashkiliy qo'mita kotibi:

Ulug'bek To'xtayev – O'zbekiston Milliy universiteti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi

Maqolalarning to'g'ri va aniqligiga mualliflar mas'uldir.

© Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA BADIY ADABIYOT BILAN ISHLASHNI O'RGATISH

Nizomova Shoxista Shodiyevna

Buxoro davlat universiteti f.f.f.d (PhD) Maktabgacha ta'lim kafedراس

Fayzullayeva Zarina Narzulla qizi

14-2MT-20 guruh talabasi

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o'zining nutqiy rivojlantirish vazifalariga ega. Bolaning yoshi o'sib borishi bilan adabiy asarlarni qabul qilish darajasi ham ortib borishi tufayli ularda tushunchalar asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Shundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har bir yosh bosqichida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirib borish masalalariga e'tibor qaratamiz. Ilk yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi – bu ularga nisbatan emotsional javob, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asarlar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir. Ushbu yoshdagi bolalar uchun kichik shakldagi she'riyat, ya'ni: folklor va mualliflik she'riyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bolalarga bosh qahramonlari bolalar, hayvonlar bo'lgan, o'yinli va maishiy vaziyatlar bayon qilingan asarlar juda qiziqarlidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanoq she'rlar syujetlari asosida ishtiyoq bilan o'yinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidiga va folklor yo'nalishidagi bir maromdagi takrorlashlarga quloq tutadi hamda ularga taqlid qiladi. Bola adabiy asarlarda bayon qilingan voqealarni juda jiddiy qabul qiladi. O'ziga yoqib qolgan ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Uning qahramonlarini ko'rgazmali tasvirlar va o'yinchoqlardan xursand bo'lib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib kutgani holda syujet harakatlarining odatdagi ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatib boradi. Kichikintoylarga mo'ljallangan badiiy asarlar soni unchalik ko'p emas. Shuning uchun ular ko'p martalab takror jaranglashi, bolaning kundalik hayotiga kirib borishi va unda badiiy asarni his qilishning birlamchi asoslarini rivojlantirishi lozim. Ilk yoshdagi bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasini asosan o'zbek folklori asarlari tashkil qiladi. Ular eng yaxshi tarzda ilk yoshdagi bolalar ehtiyojlariga mos keladi, chunki, u so'z, ohang, musiqa va harakatni o'zida jamlagandir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu vazifalarni amalga oshirish bolalarda adabiy asarlarni estetik qabul qilish qobiliyati va mahoratini tarbiyalash, ularda badiiy-nutqiy faoliyatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Ilk yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlar mazmuni va shartlari qanday bo'lmog'i lozim? Tarbiyachining badiiy asarni o'qish yoki hikoya qilish jarayoniga u xuddi ana shu

voqealar tomoshabini yoki ishtirokchisi sifatida emotsional tarzda qo'shilib ketishi bolalar bilan pedagogik ishlarni olib borishning eng muhim sharti hisoblanadi. Aynan bir asarning o'zi ko'p marta takrorlanishi lozim: tarbiyachi suratli kitobdan «Sholg'om» ertagini o'qiydi, so'ngra uni kitobsiz hikoya qilib beradi, o'yinchoqlar bilan ko'rsatadi, guruhga boshqa rassom tomonidan ishlangan ko'rgazmali tasvirlarni olib keladi, bolalar bilan birgalikda o'qiydi va hikoya qiladi. Kattalar badiiy so'zni bolaning kundalik hayotiga doimiy ravishda kiritib borishlari (Uxla, qarog'im mening), bolaning o'z ismini u yoki bu o'yin yoxud maishiy vaziyatga mos keluvchi xalq qo'shig'iga qo'shib aytishlari lozim. Tarbiyachi (kattalar) bolalar bilan birgalikda tanish va notanish kitoblardagi ko'rgazmali tasvirlarni ko'zdan kechirishi, bolalarni tanish asarlar, ko'rgazmali tasvirlar va o'yinchoqlar qahramonlarini tanib olishga, qahramon ismi va uning harakatlari nomini aytishga, shuningdek badiiy matnning ayrim ifodali qismlarini aytib berishga undashi lozim. Ayniqsa, 4-5 nafar boladan iborat bo'lgan kichik guruhlar bilan kitoblarni ko'rib chiqish va o'qish, shuningdek, har bir bolaning tanlab olingan va guruhda saqlanayotgan kitoblardan erkin foydalanishi uchun tegishli sharoit yaratishi alohida ahamiyatga egadir. Ilk yoshdagi bolalarga badiiy adabiyotni tanishtirish jarayonida ularda bilish va nutqiy qobiliyatlarini hamda nisbatan tegishli munosabatni rivojlantirish zarur. Bilish qobiliyati: kattalarning hikoya yoki kitob o'qishlarini diqqat bilan tinglash, tanish asarlarni esda saqlab qolish va uni takror tinglaganda ertak, hikoya, ko'rgazmali, o'yinchoqlar qahramonlarini tanib olish, she'rlar qatorlari, kichik shakldagi asarlar matnini esda saqlab qolishi lozim. Tarbiyachi bolani kattalar va bolalar bilan birgalikda she'rlar, qo'shiqlar aytishda ishtirok etishga, tovushlar, jarangdor qofiya, so'zlar bilan o'ynashdan zavq olishga undaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy adabiyot bolalarni tarbiyalashda, ularning hayotiy haqiqat haqidagi g'oyalarini kengaytirishda, bolani hayot haqida bilim olishga yordam berishida, uning atrof-muhitga munosabatini shakllantirishda, ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda alohida o'rin tutadi. Badiiy asar qahramonlariga hamdard bo'lishni o'rganib, bolalar yaqinlari va atrofdagi odamlarning kayfiyatini payqay boshlaydilar, bu ularni uyg'otadi insonparvarlik tuyg'ulari - ishtirok etish, mehr-oqibat, rahm-shafqat, adolat tuyg'usini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., 2006.
- 2.Jumasheva G.X. Formirovanie osnov kultury obsheniya doshkolnikov na karalpaxskom yazыke v usloviyax dvuyazychiya sredstvami teatralizovannyx igr. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati, T., 1996.
3. R.M.Kodirova Nutqni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi kursiga oid namunaviy dastur. T., 2000.

Nigmatova M., Erkinova E. Maktabgacha ta'lim tizimida stem texnologiyalarini qo'llash va uning avzalliklari.....	680
Nizomiddinova D. Bolalarga she'riy usulda ingliz tilini o'rgatish.....	684
Nizomova Sh., Ubaydullayeva P. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yinning bola hayotidagi ahamiyati.....	686
Nizomova Sh., Fayzullayeva Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarga badiiy adabiyot bilan ishlashni o'rgatish.....	689
Nishonov S. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – jamiyat taraqqiyotining muhim omili.....	691
Niyazova D., Ergasheva G. Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda pedagogik-psixologik yondashuv.....	695
Norqobilova S. Giperfaollik diqqat tanqisligi sindromli yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonlarida do'stlik ko'nikmalarining shakllanishi.....	697
Normamatov F. Ingliz lisoniy tasvirida “yaxshilik” konsepti	700
Nortoyeva Z., Oxunov R. Tabiiy ofat zilzila va uning oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlari.....	706
No'monjonov M. Dori vositalarining rivojlanish tarixi va farmakologik xususiyatlari.....	710
Numanova M. Сифатли таълим – инсон капиталини ривожлантирувчи драйвер.....	713
Nuraliyev D., Taylanov N. Technologies aimed to activate educational activities in the field of computer science.....	717
Nuralieva N. Tibbiy ta'limning bugungi kuni.....	720
Nuriddinova M. Sifatli ta'lim – jamiyat taraqqiyotining poydevori.....	723
Nurmatova S. Oq rang talqini haqida.....	726
Nurullayeva O. Asab tizimi shkastlangan bolalarni ta'lim bilan qamrab olish, parvarish qilish va jamiyatga moslashtirish.....	730
Obbosxonov A. Ta'lim va tarbiyaning yoshlar huquqiy-madaniyatini yuksaltirishda o'rni.....	733
Obidova N. Nazar Eshonqul hikoyalarining qiyosiy tahlili.....	737
Odiljonov K. Description of molecular-genetic processes in animals.....	739
Одинаева М., Ёмғиров Ш. Требования современности в воспитание молодежи на уровне духовной зрелости и совершенства.....	741
Орипов Ф. Жамиятда ёшлар экологик маданиятини шакллантиришнинг генезиси ва ижтимоий аспекти.....	744
Останов Ш. Психологияда креативлик масаласи.....	749
Ostonova Sh. Boshlang'ich sinflarda matematik atamalarni ingliz tilida o'rgatish orqali o'quvchilar savodxonligini oshirish metodikasi.....	753
Отабекова Н. Яшил иқтисодиётни такомиллаштириш асослари	756
Ochilov S., Mirzailyosov T. Korrupsiyaga qarshi kurashishda yoshlarning o'rni.....	764